

### KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

|                                           |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
|-------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Kredit mahsulotining turi va nomi</b>  | <b>Ipoteka – ikkilamchi bozor uchun</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| <b>Qarz oluvchi qo'yiladigan talablar</b> | O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 21 yoshga to'lgan 60 yoshdan oshmagan, shuningdek ish haqi ko'rinishidagi oylik rasmiy daromadiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar yoki o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar.                                                                                                                                                                                                                            |
| <b>Kredit valyutasi</b>                   | O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi - so'm                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |
| <b>Kredit miqdori</b>                     | 3 000 000 000 (uch milliard) so'mgacha                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| <b>Kredit maqsadi</b>                     | Ikkilamchi bozordan turar-joy sotib olish uchun                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| <b>Kredit muddati</b>                     | Imtiyozli davrsiz 120 oy muddatgacha                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| <b>Foiz stavkasi</b>                      | Yillik 24%<br>Kredit foizlariga boshqaruv qarori bilan o'zgartirish kiritilishi mumkin.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| <b>Taqdim etish shakli</b>                | Uyning oldi-sotdi shartnomasiga asosan turar-joyning dastlabki egasining "Universal bank" da ochilgan omonat hisob raqamiga yoki bank plastik kartasiga pul o'tkazish yo'li orqali                                                                                                                                                                                                                                                                     |
| <b>Boshlang'ich to'lov</b>                | Turar-joy qiymatining 25% dan kam bo'lmagan miqdorda;                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
| <b>Talab etiladigan xujjatlar</b>         | <ul style="list-style-type: none"> <li>- Qarz oluvchining shaxsini tasdiqlovchi xujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va x.k);</li> <li>- Uyning oldi-sotdi shartnomasi;</li> <li>- Mulkning qiymati haqidagi mustaqil baholash hisoboti;</li> </ul>                                                                                                                                                                                      |
| <b>Kredit ta'minoti</b>                   | Kredit hisobiga sotib olinayotgan turar-joy ta'minot sifatida kredit miqdorining 125% dan kam bo'lmagan qiymatda qabul qilinadi;<br>* Bankka aloqador bo'lgan shaxslarga ajratiladigan kreditlar bo'yicha 130% qiymatida garov qabul qilinadi.                                                                                                                                                                                                         |
| <b>Kredit qaytarish tartibi</b>           | Kredit va hisoblangan foizlarni to'lash kredit shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda annuitet to'lov usulida amalga oshiriladi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
| <b>Qo'shimcha shartlar</b>                | <ul style="list-style-type: none"> <li>* Kredit olishni istagan qarz oluvchi rasmiy daromadga ega bo'lsa, kreditni olish uchun ariza berganida, oxirgi ish joyida kamida 6 (olti) oy davomida uzluksiz ishlagan bo'lishi;</li> <li>* Qarz oluvchining o'rtacha oylik sof daromadining 70%i kredit bo'yicha eng yuqori oylik to'lov hamda mavjud kreditlar/qarzlarni bo'yicha o'rtacha oylik to'lov miqdorini qoplash uchun etarli bo'lishi;</li> </ul> |

|  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|--|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|  | <ul style="list-style-type: none"> <li>* Kredit olishni istagan qarz oluvchi o'zini o'zi band qilgan bo'lsa, o'zini o'zi band qilganlik guvohnomasini taqdim etishi;</li> <li>* Ijobiy kredit tarixiga ega bo'lishi;</li> <li>* Garov rasmiylashtirilayotgan paytda turar-joyda doimiy royxatdan o'tgan fuqarolar mavjud bo'lmasligi;</li> <li>* Sotib olinayotgan turar-joy qarzorning yaqin qarindoshlariga tegishli bo'lmasligi;</li> </ul> |
|--|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|